

**TOVAR BELGISIGA TALABNOMA TOPSHIRISH JARAYONI  
YUZASIDAN TOP-10 DOLZARB SAVOLLARGA AMALIY JAVOBLAR**

*Mualliflar: Intellektual mulk markazi xodimlari:*

*Nasirillayeva Nadida Otabek qizi*

*Anamatov Sohob Saitmurot o'g'li*

*Mahmudov Nizomiddin Olimjon o'g'li*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola O'zbekistonda tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish jarayoni, hujjatlar, to'lovlar va muhim savollarga javoblarni muhokama qiladi. Intellektual mulkni himoya qilish va davlat ro'yxatiga olish, brend yaratish va iqtisodiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega huquqiy jarayonlar haqida batafsil ma'lumot beradi.

**KALIT SO'ZLAR:** tovar belgilari, ro'yxatdan o'tkazish, intellektual mulk, brend, himoya qilish, davlat ro'yxati, tadbirkorlar, tovar belgisi guvohnomasi, O'zbekiston, Adliya vazirligi, Intellektual mulk markazi, patent boji, xizmat ko'rsatish belgilari, davlat muhofazasi, biznes xavfsizligi, brend yaratish.

Intellektual mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazish tadbirkorlarning davlatga bo'lgan ishonchi belgisidir. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Intellektual mulk masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarmas ekanmiz, O'zbekiston bundan o'n yildan keyin ham raqobatbardosh bo'lmaydi"<sup>1</sup>.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv va IT davrida intellektual mulkga ega bo'lish va undan foydalanish, xususan o'z shaxsiy brendiga ega bo'lish mufavvaqiyatli biznes olib borishning kalitiga aylandi. Dunyodagi rivojlangan davlatlarda intellektual mulkni muhofaza qilish va uni himoya qilish masalasi eng davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Tabiiyki, rivojlangan davlatlarda intellektual mulkning ulushi ushbu ushbu sohaga davlatning yuksak e'tibori tufayli ancha salmoqli raqamlarni tashkil etadi. Jumladan, AQSH Patent va Tovar belgilari Ofisi ma'lumotlariga ko'ra intellektual mulkning ulushi mamlakat YIMning qariyb 40% ini tashkil etib, uning salmoqli qismi tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari (brendlar) realizatsiyasiga teishlidir<sup>2</sup>.

Tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish ularni himoya qilish va ulardan foydalanish kabi iqtisodiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy jarayon hisoblanadi. Bugun O'zbekistonda tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgilari (keyingi o'rinlarda tovar belgisi)ni muhofaza qilish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish ko'lami

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/uz/2020/10/12/intellectual-property/>

<sup>2</sup> <https://www.uspto.gov/sites/default/files/documents/uspto-ip-us-economy-third-edition.pdf>

yildan-yilga kengayib bormoqda. Bu aholi orasida o‘z brendini yaratish va uni davlat muhofazasidan o‘tkazishga bo‘lgan qiziqishi ortishi bilan bog‘liqdir. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanishni maqsad qilgan har bir tadbirkor xavfsiz biznes yuritish uchun birinchi navbatda davlat muhofazasiga olingan o‘z tovar belgisiga ega bo‘lishi lozim. Bu esa tadbirkor tomonidan tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida vakolatli davlat organiga talabnoma topshirish orqali amalga oshiriladi.

**Sohaga oid qonun hujjatlariga** to‘xtalsak, tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasining 30.08.2001-yilda qabul qilingan 267-II-sonli “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonuni xamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.09.2023-yildagi 480-sonli “Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti”ga muvofiq tartibga solinadi.

Shu o‘rinda Tovar belgisi tushunchasiga to‘xtalsak, O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasiga ko‘ra **tovar belgisi (xizmat ko‘rsatish belgisi)** bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari, xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlari, xizmatlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgidir. U so‘zli, tasvirli, hajmli va ularning jamlamasi kabi ko‘rinishlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin<sup>3</sup>. Umuman olganda tovar belgisi bu tadbirkorlarning o‘z mahsulotini boshqa mahsulotlardan farqlash, aholiga o‘z mahsulotini tanitish va reklama qilish vazifasini bajaruvchi muhim vositadir.

Tovar belgilarining asosiy vazifalariga to‘xtalsak, ular quyidagilardan iborat:

- **Tanib olish.** Iste'molchilar mahsulot yoki xizmatni tezda tanib olishlari va eslab qolishlari uchun tovar belgisi tanib olishga qulay va aniq bo‘lishi muhimdir.
- **Himoya.** Tovar belgilari mahsulotni boshqa raqobatchilarning shunga o‘xshash mahsuloti belgilaridan himoya qiladi va intellektual mulk huquqlarini ta'minlaydi.
- **Sifatni ta'minlash.** Tovar belgisi iste'molchilarga mahsulot yoki xizmat sifatining barqarorligini va ishonchliligini bildiradi.
- **Bozorda imidjni yaratish:** Tovar belgisiga ega bo‘lish tadbirkor uchun o‘z mahsuloti imidjini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va iste'molchilar orasida sodiqlikni oshiradi. Tovar belgisi ushbu mahsulot yoki xizmatning yillar davomida shakllanadigan qadriyatlaridan darak berib turadi.

Tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi bugungi kunda tadbirkorlarimiz o‘ylaganidan ancha oson va soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Bunda tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish talabnomani topshirish bevosida talabnoma topshiruvchi

<sup>3</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6613366#-6614880>

tadbirkor yoki u ishonch bergan vakil tomonidan **Sanoat mulki muhofazasi portaliga** ([ip.adliya.uz](http://ip.adliya.uz)) **elektron tarzda** talabnoma topshirish orqali amalga oshiriladi. Bunga muqobil ravishda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va pochta aloqasi orqali talabnoma topshirish yo‘llari ham mavjud. Ammo bunda muqobil yo‘llar orqali talabnoma topshirilganda baribir hujjatlar maxsus portalga kiritiladi va keying harakatlari ushbu portalda amalga oshiriladi. Shu sababli tadbirkorlar uchun [ip.adliya.uz](http://ip.adliya.uz) sayti orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri talabnoma topshirish ancha qulay yo‘l ekanligini ta’kidlab o‘tishimiz lozimdir.

Qayd etish lozimki, bu jarayonda tadbirkorlar tomonidan qonuniy talablarni va electron xat-hujjat yurtish qoidalarini yetarlicha bilmaslik tufayli chalkashliklar va tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Tovar belgilarini ro‘yxatga olish tartiblari, ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni qilmaslik uchun nimalarga e’tibor berish kerakligi o‘z Tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazmoqchi bo‘lgan har bir tadbirkor uchun juda qiziqdir. Quyida bu bo‘yicha eng muhim savollarga batafsil javob berib o‘tiladi.

### 1. Talabnomada ikki yoki undan ortiq belgini aks ettirish mumkinmi?

Qonunning 9-moddasi birinchi qismiga asosan, talabnoma bitta tovar belgisiga taalluqli bo‘lishi kerak. Bu normaga ko‘ra talabnomada faqat bitta tovar belgisi keltirilishi lozim. Bitta belgining turli ko‘rinishlarini bir talabnomada ifodalash, shuningdek, agar dori vositasi bo‘lsa, ikki va undan ortiq turli nomni birgalikda topshirish mumkin emas. Bu xatoga yo‘l qo‘yish talabnomaning rasmiy ekspertiza boshqichida rad etilishiga asos bo‘lishi mumkin.



1-rasm

2-rasm

Yuqoridagi rasmlardan 1-rasmda bir nechta tovar belgisini o‘z ichiga olgan tasvirlar keltirilgan. Bu rasmlarni shundayligicha tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazib bo‘lmaydi. Sababi tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazishda xalqaro miqyosda tan olingan **“bitta talabnoma – bitta tovar belgisi”** prinsipi qo‘llaniladi. Bu esa Tovar belgisi sifatida brendingizni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun uning turlicha shakl va hajmdagi ko‘rinishlarini birdan ro‘yxatdan o‘tkazish emas, balki ularning eng optimal variantini

ro'yxatdan o'tkazish lozimligini anglatadi. Agar sizga ularning barcha ko'rinishini himoyalash zarur bo'lsa, unda har bir ko'rinishni alohida tartibda ro'yxatdan o'tkazish orqali kuchli va aniq huquqiy himoyani ta'minlash mumkin va aynan aniq muhofaza va kuchli huquqiy himoya Tovar belgisi qonunchiligining asosiy maqsadidan biridir. Demak, belgilar Qonunning 9-moddasiga ko'ra yuqoridagi 2-rasmdagidek tartibda ro'yxatdan o'tkazish orqali brend himoyasini ta'minlanadi.

## 2. Ro'yxatdan o'tkazish jarayoni uchun qanday hujjatlar kerak?

Yuqorida aytib o'tganimizdek barcha hujjatlar [ip.adliya.uz](http://ip.adliya.uz) saytiga yuklanadi va barcha davlat ekspertizasi jarayonidagi yozishmalar ushbu portalda amalga oshiriladi. Demak, portalda talabnoma topshiruvchi tomonidan talabnoma shakllantiriladi va Qonunning 9-moddasi ikkinchi qismiga binoan talabnomaga quyidagilar kiritilgan holda to'ldiriladi:

- 1) tovar belgisi sifatida belgini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza;
- 2) talabnomada ko'rsatilgan belgining tasviri;
- 3) belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifiga muvofiq guruhlangan, tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovarlarning ro'yxati.

Talabnomaga quyidagilar *ilova qilinishi zarur*:

- 4) talabnoma berganlik uchun patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;
- 5) talabnoma patent vakili orqali berilgan taqdirda talabnoma beruvchining ishonchnomasi.

Yuqorida keltirilgan hujjatlar tovr belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan eng asosiy hujjatlar hisoblanib, har bir talabnomani onlayn shakllantirishda alohida e'tibor berilishi lozimdir.

## 2. Tovar belgisi uchun to'lanadigan davlat to'lovi miqdori qancha?

Tadbirkordan tovar belgisini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun talabnoma topshirganlik uchun to'lanadigan boj miqdorlari O'zbekiston Respublikasi "Davlat boji" to'g'risida"gi qonunda batafsil berilgan<sup>4</sup>. Ushbu qonunning hozirda amalda bo'lib turgan ilovasi 12-bandiga ko'ra tadbirkor tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishga va talabnomada ko'rsatilgan belgini davlat ekspertizasidan o'tkazishga talabnoma topshirganida ham O'zbekiston rezidentlari, ham xorijiy rezidentlar bir xil miqdorda boj to'lovini amalga oshirishadi. Bu sohada so'nggi yillarda yangi davrdagi eng muhim o'zgarishlardan biridir.

Demak, tovar belgisiga talabnoma topshirish jarayonida asosan ikki xil boj to'lovi amalga oshiriladi. Birinchisi, talabnoma topshirganlik uchun boj bo'lib, jismoniy

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni, 06.01.2020 yildagi O'RQ-600-son. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son; 07.05.2026-y., 03/26/1144/0467-son.  
<https://lex.uz/docs/-4680944>

shaxslar uchun mavjud bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 4 baravari miqdorida boj to'lovini amalga oshirishi lozim bo'ladi, yuridik shaxslar esa BHMning 6 baravari miqdorida boj to'lashlari kerak bo'ladi.

Agar tadbirkor bittadan ortiq turda mahsulot ishlab chiqarmoqchi yoki xizmat ko'rsatmoqchi bo'lsa, bittadan oshgan har bir Tovar va xizmatlar xalqaro tasnifi uchun jismoniy shaxs (masalan, Aliyev Ali Aliyevich) BHMning yarmi, 50 foizi miqdorida, yuridik shaxs (masalan, "ALI" MCHJ) esa 1 baravari miqdorida qo'shimcha boj to'lashi, lozim bo'ladi.

Bu jarayonni misollar bilan tushuntiradigan bo'lsak, aytaylik tadbirkor jismoniy shaxs sifatida kiyim brendini himoyalamoqchi, va u o'z brendini ham kiyim ishlab chiqarish (25-sinf) uchun ham sotish (35-sinf) uchun davlat ro'yxatidan o'tkazmoqchi. Bu jarayonda tadbirkor xalqaro Tovar va xizmatlar tasnifining ikkita sinfi uchun dastlabki boj hisoblangan BHMning 4 baravariga qo'shimcha ravishda yana 0,5 BHM, ya'ni jami 5 BHM miqdorida boj to'laydi. Bu jarayon davlat tomonidan nazoratga olingan bo'lib talabnoma topshirish uchun shu tartibda boj to'lovi nazarda tutilgan va barcha xatti-harakatlar yagona portal orqali amalga oshiriladi.

### **3. Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish qancha vaqt oladi?**

Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish vaqti amaldagi qonunchilikka muvofiq 7 oydan 9 oygacha va undan ortiq davom etishi mumkin. Batafsil tushuntirsak, tadbirkor talabnomani shakllantirgandan keyin qonunchilikka ko'ra 3 oy mobaynida biz yuqorida to'xtalgan davlat bojlarini mos ravishda to'lashi lozim bo'ladi. Agar talabnoma shakllantirgan zahoti boj to'lovini amalga oshirilsa, talabnoma vakolatli organ, Intellektual mulk markazi tomonidan avtomatik qabul qilinadi va ancha vaqt tejiladi. Undan keyingi jarayon esa Davlat ekspertizasi bosqichidir va bu qonunchilikka ko'ra jarayon ikkita rasmiy va talabnomada ko'rsatilgan belgi ekspertizasidan iborat bo'ladi. Ushbu ekspertiza bosqichlari umumiy 7 oydan iboratdir. Ammo bunjarayonda har ikki ekspertiza bosqichida davlat ekspertizasi so'rovnomasi kelib tushganda ish yuritish to'xtatib turiladi. Tadbirkorlarimiz bu jarayonga e'tibor bilan yondashgan holda har bir so'rovga aniq tarzda javob yuborish orqali o'z qimmatli vaqtini tejashlari mumkin. Ekspertizaning yakuniy qarori bilan tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida ijobiy qaror tadbirkorga jo'natilgan sanadan boshlab 3 oy Ichida tadbirkor tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish, muhofaza hujjatini berish, e'lon qilish va muhofaza hujjatining amal qilish muddati uchun patent boji to'lashi lozim. Bu jaraayonda ham tadbirkor o'z vaqtini tejash imkoniyatidan foydalanib boj to'lovini tezroq amalga oshirishi mumkin. Patent boji to'langandan keyin tovar belgisi avtomatik ravishda vakolatli organ tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi va guvoohnoma, ya'ni muhofaza hujjatini beradi.

#### **4. Tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtida ekspert so‘roviga javob berish muddati qanchani tashkil etadi?**

Tovar belgisini ekspertizasi jarayonida rasmiy ekspertiza va talabnomada berilgan belgi ekspertizasi jarayonida Davlat ekspertizasining so‘roviga binoan qo‘shimcha materiallarni talabnoma beruvchi so‘rov jo‘natilgan sanadan e‘tiboran **uch oy** mobaynida taqdim etmog‘i lozim. Talabnoma beruvchining iltimosiga ko‘ra mazkur muddat ko‘pi bilan yana uch oy, ja‘mi olti oyga uzaytirilishi mumkin. Agar talabnoma beruvchi so‘ralayotgan qo‘shimcha materiallarni yoki ularni taqdim etish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rsatilgan muddatda taqdim etmasa, talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi.

Talabnoma beruvchi tomonidan o‘tkazib yuborilgan muddatlar talabnoma beruvchining mazkur muddat tugaganidan keyin kechi bilan ikki oy ichida bergan iltimosnomasiga binoan Davlat muassasasi tomonidan tiklanishi mumkin.

#### **5. Ro‘yxatdan o‘tgan tovar belgisini qanday himoya qilish mumkin?**

Bunda ro‘yxatdan o‘tgan tovar belgisi davlat tomonidan himoya qilinadi. Adliya vazirligining Intellektual mulk departamenti tomonidan tadbirkorlarning intellektual mulki bo‘lgan tovar belgilarini himoya qilish va kontrafakt tovarlarga qarshi kurash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Agarda tadbirkor tovar belgisidan uning ruxsatisiz foydalanish holatiga duch kelsa darhol Adliya vazirligiga murojaat qilishi lozimdir.

“Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonunning 371-moddasiga muvofiq tovar belgisidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki ular bilan adashtirib yuboradigan darajada o‘xshash bo‘lgan bir turdagi tovarlar uchun belgilardan qonunga xilof ravishda foydalanish yuridik shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Jarimalar miqdorlari huquqbuzarliklarning har bir turi bo‘yicha alohida belgilanadi.

Shuningdek Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 177-moddasiga asosan O‘zganing tovar belgisidan, xizmat ko‘rsatish belgisidan, geografik ko‘rsatkichidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki adashtirib yuborish darajasida ular bilan o‘xshash bo‘lgan belgilardan shu turdagi tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan qonunga xilof ravishda foydalanish yoxud o‘zganing firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib,

bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

#### **6. Tovar belgisiga doir guvohnomaning amal qilish muddati qancha va uni uzaytirish mumkinmi?**

Tovar belgisiga doir guvohnomaning amal qilish muddati amaldagi qonunchilikka muvofiq 10 yilni tashkil etadi.

Tovar belgisiga doir guvohnomaning yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddati guvohnoma amal qilayotgan oxirgi yil mobaynida uning egasi tomonidan berilgan arizaga binoan har safar o‘n yilga uzaytirilishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan arizaga quyidagilar ilova qilinishi lozim:

- patent boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat;
- patent vakili orqali ariza berilgan taqdirda talabnoma beruvchining ishonchnomasi;
- tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxs mazkur jo‘g‘rofiy obyektida ekanligini va guvohnomada ko‘rsatilgan xususiyatlarga ega bo‘lgan tovar ishlab chiqarayotganligini tasdiqlovchi hujjat.

Tovar belgisiga doir guvohnomaning yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish haqidagi yozuv tegishli reyestrda kiritiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan arizani berish muddati guvohnomaning amal qilish muddati tugagandan keyin olti oy mobaynida guvohnoma egasi bergan iltimosnomaga binoan uzaytirilishi mumkin.

#### **7. Ro‘yxatdan o‘tgan tovar belgisini kim va qanday foydalanishi mumkin?**

Tovar belgisining egasi tovar belgisidan foydalanishda va uni tasarruf etish, ya‘ni sotish, boshqa shaxsga ijaraga berishda mutlaq huquqqa egadir.

Tovar belgisi uni ishlatish uchun ro‘yxatga olingan tovarlarda va (yoki) ularning idishi hamda o‘rovida tovar belgisining egasi tomonidan yoki ushbu Qonunning 30-moddasiga muvofiq litsenziya shartnomasi asosida bunday huquq berilgan shaxs tomonidan qo‘llanilishi tovar belgisidan foydalanish deb hisoblanadi.

Tovar belgisining:

- reklamada, bosma nashrlarda, rasmiy blankalarda, peshlavhalarda, ko‘rgazmalar va yarmarkalarda eksponatlarni namoyish etish vaqtida, ishlab chiqarilayotgan, sotuvga taqdim etilayotgan, sotilayotgan yoki boshqacha tarzda fuqarolik muomalasiga kiritilayotgan yoxud shu maqsadda saqlanayotgan va (yoki)

tashilayotgan yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlarning etiketkalarida, o‘rovlarida;

- tovarlarni fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarda;
- domen nomida ishlatilishi ham tovar belgisidan foydalanish deb e‘tirof etilishi mumkin.

Tovar belgisidan yoki adashtirib yuborish darajasida u bilan o‘xshash bo‘lgan belgidan tovarlarda, tovarlarning etiketkalarida, o‘rovlarida qonunga zid ravishda foydalanilganda ular kontrafakt hisoblanadi.

Vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tovarlarni tayyorlovchining tovar belgisi bilan bir qatorda shartnoma asosida o‘z tovar belgisidan ham foydalanishi mumkin.

### **8. Tovar belgisiga doir guvohnomaga o‘zgartirishlar kiritish mumkinmi?**

Ha mumkin. BUnda e‘tiborga olish muhim bo‘lgan jihat shuki, tadbirkor tovar belgisiga doir guvohnomaga o‘zgartirish kiritish mumkin emas, endi uni qayta davlat ro‘yxatdan o‘tkazishim kerak degan noto‘g‘ri fikr bilan kerakli o‘zgartirishlarni kiritishni ortga suradi. Qonunning 23-moddasiga muvofiq, tovar belgisining egasi yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomaning egasi Vazirlikni o‘z nomi, familiyasi, ismi yoki otasining ismi o‘zgarganligi to‘g‘risida, tovar belgisi yoki tovar kelib chiqqan joy nomini ro‘yxatdan o‘tkazishga taalluqli boshqa o‘zgartirishlar to‘g‘risida, tovar belgisi uchun esa tovar belgisi olingan tovarlarning ro‘yxati qisqartirilganligi, tovar belgisining ayrim qismlari uning mohiyatini buzmaydigan tarzda o‘zgartirilganligi to‘g‘risida xabardor qiladi. Ushbu o‘zgartirishlar to‘g‘risidagi yozuv Vazirlik tomonidan tovar belgisiga doir guvohnomaga yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomaga va tegishli reyestrda kiritiladi.

Tovar belgisiga doir guvohnomani haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida nizo kelib chiqqan taqdirda, huquqiy muhofaza berish nizolashilmayotgan bitta tovar yoki tovarlarning bir qismi uchun tovar belgisi alohida ro‘yxatdan o‘tkazilganligi bir necha tovarga nisbatan amal qilayotgan tovar belgisi ro‘yxatdan o‘tkazilganligidan tovar belgisi egasining arizasiga binoan ajratib ko‘rsatiladi.

### **9. Tovar belgisiga doir guvohnoma bekor qilinishi mumkinmi?**

Tovar belgisiga doir guvohnoma qonunda nazarda tutilgan asoslar bilan bekor qilinishi, ya‘ni sud organi tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Qonunning 24-moddasiga muvofiq, tovar belgisiga doir guvohnoma uning butun amal qilish muddati davomida, agarda Qonunda belgilangan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaydigan belgilarga doir belgilangan talablarni buzgan holda berilgan bo‘lsa yoki tovar belgisini

ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar Vazirlikning o'z rasmiy veb-saytida ham joylashtiriladigan rasmiy axborotnomasida e'lon qilingan sanadan e'tiboran besh yil mobaynida, basharti u ushbu Qonun 10-moddasi birinchi qismining 13 va 14-bandlarida belgilangan talablarni buzgan holda berilgan bo'lsa, to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Tovar belgisi egasining harakatlari belgilangan tartibda insofsiz raqobat fakti deb topilgan taqdirda, tovar belgisiga doir guvohnoma uning butun amal qilish muddati davomida to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma uning amal qilishining butun muddati davomida, basharti u ushbu Qonunda belgilangan talablarni buzgan holda berilgan bo'lsa, haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Tovar belgisiga doir guvohnoma yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma sud qarori asosida to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topiladi.

#### **10. Tovar belgisiga doir huquqni boshqa shaxsga berish mumkinmi?**

Albatta mumkin, Qonunning 30-moddasida ushbu masalaga doir qoidalar o'z aksini topgan bo'lib, unga muvofiq tadbirkor, ya'ni jismoniy yoki yuridik shaxs o'z mulki bo'lgan tovar belgisiga doir huquqni shartnoma bo'yicha boshqa shaxsga o'tkazishi orqali amalga oshirilishi belgilangan. Bunda istisno holatlar ham mavjud. Agarda Tovar belgisiga doir huquqni boshqa shaxsga o'tkazishga, basharti u iste'molchini tovar yoki uning tayyorlovchisi xususida chalg'itadigan bo'lsa, yo'l qo'yilmaydi.

Tovar belgisidan foydalanish huquqi tovar belgisining egasi (litsenziar) tomonidan litsenziya shartnomasi bo'yicha boshqa shaxsga (litsenziatga) berilishi mumkin. Bu jarayonda alohida e'tibor berish kerak bo'lgan muhim jihat shuki, litsenziya shartnomasida litsenziat tovarlarining sifati litsenziar tovarlarining sifatidan past bo'lmasligi haqida shart qo'yilgan bo'lishi va litsenziar bu shartning bajarilishini nazorat qilishi ko'rsatilishi lozim.

Tovar belgisiga doir huquqni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi har bir shartnoma yoki litsenziya shartnomasi Vazirlikda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

**Xulosa o'rnida** aytish mumkinki, hozirgi globallashuv davrida tovar belgilarining davlatlar iqtisodiyotidagi o'rnini juda muhimdir. Birgina tovar belgisi hattoki butun boshli korporatsiyadan qimmatroq baholanishi mumkin. Shunday ekan tadbirkorlik bilan shug'ullanishni maqsad qilgan yuridik yoki jismoniy shaxs o'z tovar belgisiga ega bo'lishi, uni qonuniy muhofaza qilishi, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazishi muhimdir. Davlat ro'yxatidan o'tkazish qonuniy himoya qilish jarayonini to'liq va tezkor holda ta'minlash uchun asosdir. Shu o'rinda aytib o'tishni istardikki, ba'zi patent firmalari, ya'ni patent vakillari tomonidan tadbirkorlarga tovar belgisini

davlat ro‘yxatdan o‘tkazish majburiy ekanligini vaj qilib, har bir tadbirkordan tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazishni yoki ularning tovar belgisini boshqalar nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkinligi haqida ogohlantirish holatlari uchrab turibdi. Bu holatda qonun hujjatlarida majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish degan tushuncha mavjud emasligini ta’kidlash lozim. Agar tadbirkor o‘z tovar belgisini ishlatish faktini asoslab bersa hattoki boshqa tadbirkor birinchi talabnoma topshirib, rasmiylashtirib olgan taqdirda ham sud orqali bekor qildirishi mumkin. Ammo tadbirkor bu kabi qiyinchiliklarga duch kelishining oldini olishga doir eng samarali vosita bu o‘z tovar belgisini yaratgandan boshlab iloji boricha tezroq davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga shoshilishi lozim. Bu orqali u o‘z tovar belgisini huquqiy himoyasiga aniq asoslarni yaratgan bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 30-avgust 2001-yil, № 267-II.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19-sentabr 2023-yildagi 480-sonli qarori “Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti”ga muvofiq.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va ma‘ruzalari, Shavkat Mirziyoyev.
7. AQSh Patent va Tovar Belgilari Ofisi ma‘lumotlari, intellektual mulkning iqtisodiy ahamiyati haqida statistikalalar.
8. O‘zbekiston Adliya vazirligi huzuridagi “Intellektual mulk markazi” davlat muassasasining tovar belgilari bo‘yicha ma‘lumotlari (ip.adliya.uz).

### Internet nashrlari

1. <https://www.lex.uz>
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/10/12/intellectual-property/>
3. <https://www.uspto.gov/sites/default/files/documents/uspto-ip-us-economy-third-edition.pdf>